



UDK: 159.9(575.1) UDK: 159.9(575.1)

Avazbek SHOMURODOV,

Y.Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy musiqa instituti "Doston ijrochiligi kafedrası" dotsent v.b

E-mail: AvazBEK@gmail.com

TIPU prof. f.f.d. M.Yuldashev taqrizi bilan

#### PRODYUSERLIK SOHASIDAGI "MOLIYA-IQTISOD" SEMASI BILAN BOG'LIQ TERMINLAR XUSUSIDA

Annotatsiya

Prodyuserlik sohasidagi "moliya-iqtisod" semasi bilan bog'liq terminlar bugungi global ijodiy industriyaning iqtisodiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Ulardagi ma'no qatlami faqat til elementlari emas, balki madaniy va bozor munosabatlarining lingvistik in'ikosi hisoblanadi. Shu jihatdan, bunday terminlarni o'rganish tilshunoslik, iqtisod va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Termin, terminologiya, prodyuserlik, Yangi O'zbekiston

#### ON THE TERMS RELATED TO THE "FINANCE-ECONOMIC" SCHEME IN THE FIELD OF PRODUCTION

Annotation

The terms associated with the concept of "finance-economics" in the field of production reflect the economic laws of today's global creative industry. The layer of meaning in them is not only linguistic elements, but also a linguistic reflection of cultural and market relations. In this regard, the study of such terms is of great importance in revealing the interdependence between linguistics, economics, and culture.

**Key words:** Term, terminology, production, New Uzbekistan.

#### О ТЕРМИНАХ, СВЯЗАННЫХ С «ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ» СХЕМОЙ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА

Аннотация

Термины, связанные с понятием «финансово-экономическая» в сфере производства, отражают экономические законы современной глобальной креативной индустрии. Слои смысла в них — это не только лингвистические элементы, но и лингвистическое отражение культурных и рыночных отношений. В этом отношении изучение таких терминов имеет большое значение для выявления взаимозависимости между лингвистикой, экономикой и культурой.

**Ключевые слова:** Термин, терминология, производство, Новый Узбекистан.

**Kirish.** Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish maqsadida davlat siyosati darajasida muhtaram yurtboshimiz tomonidan muhim Farmon va qarorlar qabul qilinib, Hukumat tomonidan zarur hujjatlar ijroga yo'naltirilmoqda. Shiddat bilan odimlayotgan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonining jadal sur'atlari xamda keng miqyosda ijtimoiy xayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi yangi turdagi ko'plab professional faoliyat turlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Jumladan, yurtimiz sahnalarida bozor mexanizmlarining shakllanish natijasida tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos aloxida turi – prodyuserlik faoliyati vujudga kelib, rivojlana boshladi. Mohiyatan jamiyat va madaniyat orasida bog'lovchi halqaga aylangan prodyuserlar qo'lida badiiy jarayonlar borishiga xamda madaniyat rivojlanish umumiy sur'atlariga ta'sir ko'rsata oluvchi, shuningdek, ommaviy ongni boshkara oluvchi jiddiy dastak (vosita)lar paydo bo'la boshladi [5]. San'at va madaniyat sohasidagi ijodkor kuchlarini birlashtirib, katta ijodiy muhitni paydo qilish hamda katta ijodiy jarayonni yuzaga keltirish, san'at va madaniyatning saviyasini yanada ko'tarish va albatta, O'zbekiston san'ati va madaniyatini dunyoga yanada kengroq yoyish, tarannum qilish – ushbu sohaning asosiy vazifalaridir [4; 10].

**Adabiyotlar tahlili.** Prodyuserlik sohasida ilmiy izlanish olib borgan prodyuser va olimlardan Silyanov S., Alekseev I., Arkus L., Iozefavovich G., Kirilyov A., Kokerev I., Krishtul B., Koshkin V., Pol N., Chernomis S., Lazuras ILL, Ribin A., Korneev S., Ogurchikov P., Sleznik D.Smelyanskiy

I., Kravsov Y., Rodyanskiy A., Brukxaymer I., Talbert I.larning ishlari o'rganib chikildi. Shuningdek, tilshunoslikda termin lingvistik jihatdan N.V.Gavrilova, O.A.Pokrovskaya, T.V.SHetle, B.N.Raximberdiev, A.T.Xudoyberganova, O.V.Dovbish, O.V.Baran, M.K.Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvorsova, E.N.Lotka singari tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda prodyuserlik sohasiga oid moliya-iqtisod semasi bilan bog'liq terminlarning shakllanishi, semantik xususiyatlari va funksional qo'llanilishi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus lingvistik metodlardan keng foydalanildi. Avvalo, tavsifiy metod asosida prodyuserlik faoliyatida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlar aniqlanib, ularning lug'aviy ma'nosi va terminologik xususiyatlari izohlandi. Ushbu metod terminlarning soha doirasidagi asosiy semantik belgilarini belgilashga xizmat qildi. Tadqiqotda leksik-semantik tahlil metodi muhim o'rin tutdi. Bu metod orqali terminlarning semantik tuzilishi, "moliya-iqtisod" semasining markaziy va periferiya komponentlari hamda ularning prodyuserlik diskursidagi ma'no kengayishi va torayishi jarayonlari tahlil qilindi. Shuningdek, struktur-semantik tahlil yordamida terminlarning morfologik tuzilishi, so'z yasash modellarini hamda o'zlashma birliklarning (inglizcha va ruscha manbalar asosida) prodyuserlik terminologiyasiga moslashuv jarayoni o'rganildi. Bu jarayonda terminlarning shakliy va mazmuniy uyg'unligi aniqlab berildi.

**Tahlil va natijalar.** Prodyuserlik faoliyati nafaqat ijodiy jarayonni tashkil etish, balki loyihaning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini rejalashtirish, nazorat qilish va samarali boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois prodyuserlik terminologiyasida moliya-iqtisod semasiga oid birliklar muhim o'rin tutadi. Ushbu terminlar audiovizual mahsulot (film, serial, teleko'rsatuv, sahna asari va boshqalar)ni yaratish jarayonidagi moliyaviy munosabatlar, iqtisodiy mexanizmlar hamda boshqaruv jarayonlarini ifodalaydi. Prodyuserlik sohasida keng qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlardan biri budjet bo'lib, u loyiha uchun ajratilgan umumiy moliyaviy resurslar hajmini bildiradi. Budjet tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari, ijodiy jamoa haq to'lovlari, texnik vositalar ijarasi, marketing va distributsiya xarajatlari kiradi. Budjet tushunchasi bilan uzviy bog'liq xarajatlar smetasi termini mavjud bo'lib, u loyiha xarajatlarning batafsil rejasini ifodalaydi.

Moliyalashtirish (finanslash) termini prodyuserlik loyihasini amalga oshirish uchun zarur mablag' manbalarini jalb etish jarayonini anglatadi. Moliyalashtirish davlat buyurtmasi, xususiy investitsiya, homiylik, grantlar yoki koproduksiya shaklida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga investitsiya termini loyiha rivojiga kiritilgan mablag' va undan kelajakda foyda olish maqsadini bildiradi. Prodyuserlik iqtisodiyotida daromad va foyda terminlari alohida ahamiyatga ega. Daromad tayyor mahsulotni sotish, namoyish qilish yoki litsenziyalash natijasida olingan tushumni anglatadi, foyda esa daromad va umumiy xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farqni bildiradi. Ushbu terminlar bilan bog'liq holda rentabellik tushunchasi qo'llanilib, u loyiha iqtisodiy samaradorligini baholash mezonini hisoblanadi.

Shuningdek, shartnoma, gonorar, royalti, mualliflik huquqi uchun to'lov kabi terminlar prodyuserlik faoliyatidagi moliyaviy-huquqiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu terminlar ijodiy va texnik xodimlar bilan hisob-kitob qilish, intellektual mulkdan foydalanish hamda moliyaviy majburiyatlarni belgilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sir emaski, har qanday sohada moliyaviy masala eng asosiy masalalar qatorida turadi. Natija uchun yaxshigina moddiyatni talab qiladigan prodyuserlik sohasi ham bundan mustasno emas. Prodyuserlik faoliyati zamonaviy ijodiy industriyaning asosiy iqtisodiy ustuni hisoblanadi. U faqat san'at yoki ijod bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki moliyaviy rejalashtirish, sarmoyani boshqarish, budjet taqsimoti, kontraktlar va bozor munosabatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, prodyuserlik sohasidagi ko'plab terminlarda "moliya-iqtisod" semasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat tildagi terminologiya tizimining kengayishi va iqtisodiy atamalarining mediamakonga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Aytish lozimki, "sema" — tilshunoslikda ma'noning kichik birligi bo'lib, ma'lum bir lug'aviy so'z tarkibidagi ma'no qatlamini anglatadi. "Moliya-iqtisod" semasi esa boylik, mablag', sarmoya, foyda, bozor, hisob-kitob kabi ma'nolar bilan bog'liq bo'ladi. Prodyuserlik sohasidagi ayrim terminlar aynan shu ma'noga ega.

Xususan, bank ssudalari – bankovskie krediti – bank loans termini prodyuserga kino ishlab chiqarish uchun pul mablag'larni ajratish – bu bank foyiatining murakkab va ixtisoslashtirilgan turini anglatadi. Banklar kamdan-kam hollarda kino ishlab chiqarishga qarz berishadi. Banklarning biznesi yirik studiyalar va ularga yaqin yoki xorijiy tijoriy kompaniyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Esda tutish kerakki, banklar pul mablag'larni bank aktivi asosida qarz sifatida berishadi. Dunyoda hech qaysi bank filmni ishlab chiqarishga uning ssenariysiga asoslanib, hatto tijoriy jozibadorligiga qaramasdan kredit bermaydi. Ssenariy aktyorlar va direktor loyihada ishtirok etishga rozilik berish hamda aniq budjetni tuzish masalasida muhim hisoblanadi. Ammo bank

nuqtai nazaridan ssenariy ahamiyati moliyalashtirish kerak bo'lgan omil – bu loyihaning identifikatsiyasi sanaladi. Filmni ishlab chiqarish va reklama qilish uchun ajratilgan mablag'lar byudjed – budjet – budgetni tashkil etadi. Budjet yoki smeta deganda ishlab chiqarishni rivojlantirish, ayrim hollarda tayyor mahsulotni taqdim etish va sotishga bo'lgan xarajatlarning tegishli tartibda rasmiylashtirilgan moddalari tushuniladi. Budjet quyidagilar asosida tashkil topadi: ssenariyni tayyorlash bo'yicha xarajatlar, aktyorlarning gonorarlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, qo'shimcha xarajatlar.

Prodyuserlik tashkilotining kirim-chiqim operatsiyalarini amalga oshiruvchi bo'linmasi kassa – kassa – cash register bo'lib, shuningdek, bunday birlik joylashgan binolar; naqd pul va pul hujjatlari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan buxgalteriya bo'limi. kichik budjetli film – malobudjetniy film – a small budget film – budjetlarni barqarorlashtirish uchun ko'plab tizimlar mavjud. Ammo budjet qanchalik kam bo'lsa, shunchalik xavflidir. Ayniqsa, past budjetli filmlarda meyor doirasidagi va meyardan tashqari budjetlar farqlar katta bo'lsa xavfli hisoblanadi. Shu bilan birga past budjetda kichik o'zgarish ham butun filmga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Loyihani moliyalashtirishni fundraising (mablag' izlash) deb atash to'g'riroq bo'ladi. Fundraising turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Masalan, RFning kino ishlab chiqarish sanoatida filmni moliyalashtirish odatda ixtiyoriy va tizimlashtirilmagan.

Film ijarasi sertifikatini rental – rental – rental alohida ahamiyatga ega. teatr kassasi (boks offis) – kassa teatra – theater box office – filmning kassasi. Barcha davrlarning eng yuqori daromad keltirgan filmi "Avatar" bo'lib, uning kassasi 2,78 milliard dollarni tashkil etadi, garchi inflyatsiyani hisobga olgan holda "Shamol bilan o'tgan" filmi Jeyms Kemeronning 3,3 milliard dollarlik filmi chetlab o'tadi. o'zi-o'zini moliyalashtirish – samofinansirovanie – self financing – studiyadan tashqari moliyalashtirishning eng oddiy usuli – bu boy bo'lish. Pul mablag'lari kam bo'lgan kino ishlab chiqaruvchilari o'z filmlarni qisman yoki butunlay o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradi. Ko'p hollarda ular qo'shimcha moliyaviy yordam so'rash do'stu-birodarlar va qarindoshlarga murojaat qilishadi.

Filmni sug'urtalash (technical inspection) – sug'urtalashga bo'lgan talablar filmlarga qarab o'zgarishi mumkin. Murakkab tryuklari mavjud bo'lgan kinofilmga voqealar bir xonada yuz berayotgan detektivga nisbatan ko'proq sug'urta summasi yuqoriroq bo'ladi. Sug'urta film budjetidan kelib chiqib belgilanadi, ushbu hajmning 2-4 foiz hamda qonunda belgilangan kompensatsiya qiymatini tashkil qiladi. xoriyga oldindan sotish – prodvijenije prodaj za rubejom – advance sales abroad – termini filmning xoriy mamlakatlarda distributsiya huquqlarini suratga tushirishdan oldin yoki film yakunlandan oldin sotish muammosi bilan bog'liq. Hozirda kino ishlab chiqarishning mustaqil moliyalashtirish xalqaro tijoriy agentlari (ba'zan ularni prodyuser vakillari, yoki (noto'g'ri) distribyuter deb ataluvchi shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi. Kino ishlab chiqarish uchun pul mablag'larni jalb qilish bilan shug'ullangan prodyuser agentlarga hujjatlar to'plami bilan kelishi kerak. Ushbu to'plamga ssenariy, direktor bilan shartnoma va budjet haqidagi ma'lumotlar kiradi. Film ishlab chiqarish uchun moliya investitsiyalar (yoki tovarlar va xizmatlar shaklida investitsiyalarni) jalb qilish uchun Avstraliya, Kanada, Gongkong, Vengriya, Yaponiya, Ruminiya hamda G'arb Evropa mamlakatlarida ko'plab imkoniyatlar mavjud. Bu xoriy aktivlarni jalb qilish – privlechenie inostrannix aktivov – attracting foreign assets hisoblanadi.

**Xulosa.** Respublikamizda teatr, kino, televidenie, musiqa hamda xalq ijodiyoti sohalarini rivojlantirish jarayoni zamonaviy davr talablariga mos, raqobatbardosh va yuksak kasbiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashtirish sharoitida madaniyat va san'at sohalarini nafaqat estetik qadriyatlarini targ'ib etuvchi vosita, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, aholining tobora ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlariga javob bera oladigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, ijodiy va boshqaruv kompetensiyalariga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, teatr va kino san'ati, televidenie va radioeshittirish, musiqa ijrochiligi hamda xalq ijodiyoti yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi ularning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalari, innovatsion fikrlash qobiliyati va zamonaviy madaniy jarayonlarga moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini tubdan yaxshilash, o'quv rejalari va fan dasturlarini zamonaviy talablar

asosida yangilash, xalqaro tajribalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik kadrlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari hamda innovatsion ta'lim metodlarini keng tatbiq etish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sanaladi. Bundan tashqari, mazkur yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida mavjud moddiy-texnik bazani zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish, ya'ni o'quv studiyalari, sahna va tasviriy texnika vositalari, ovoz yozish va montaj laboratoriyalari, media markazlar hamda ijodiy tajriba maydonlarining imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy-texnik bazaning mustahkamligi ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirib, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini real ishlab chiqarish va ijodiy muhitga yaqin sharoitda shakllantirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san'at sohasida yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini takomillashtirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik imkoniyatlarini kengaytirish respublikamizda madaniyat va san'atni barqaror rivojlantirish, milliy madaniy merosni asrash va uni zamonaviy talablarga mos ravishda taraqqiy ettirishda muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Гацук-Шерпилова В.Ю. Исторические аспекты развития продюсирования в России // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – № S14. – 0,3 п. л.
2. Зиямухамедова Ш. Ўзбек тилшунослигида замонавий ахбороткоммуникация терминларининг ўрганилиши. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III, 2020 – 500-510 б.
3. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Материалы всесоюзного терминологического совещания. – Москва: АН СССР, 1961. – С.87.
4. Sayfullayev V., Rustamov V. Prodyuserlik mahorati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015 – 256 b.
5. Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – Москва: Наука, 1970. – 107 с.
6. Ўзбекистонда фаолият юритаётган продюсерлик марказларининг спетцифик хусусиятлари, А.Бекова. Тошкент – 2016.